

O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta ta'lim vazirligi

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Instituti

Sharq Filologiyasi va Falsafa Fakulteti

III kurs

“Mumtoz” filologiyasi

“fors-arab” guruhi talabasi

“O'zbek tili tarixi” fanidan

Referat

Mavzu: Zahiriddin Muhammad Bobur asarlaridagi so'zlar semantikasi.

Bajardi: Allayarov Sh.I.

Tekshirdi: Turdiyev J.

Toshkent 2014

Reja:

1. Zahiriddin Muhammad Boburning “Mubayyin” asarining tuzilishi
2. “Mubayyin” asarining til xususiyatlari.
3. “Mubayyin” asarida kelgan arabcha soʻzlar semantikasi.
4. Asarda qoʻllanilgan forsha soʻzlar semantikasi.
5. Xulosa
Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati.

Kirish.

Oxirgi yillarda xalq va yurt tarixi, qadimgi davrga borib yetadigan ilmiy, madaniy meros ildizlarini chuqur va xolisona o'rganishning imkoniyati tug'ildi. O'z tarixini bilmaydigan, kechagi kunni unutgan millatning kelajagi yo'q.¹

Shu sababli, ajdodlarimiz yaratgan moddiy va ma'naviy meroslar birma-bir o'rganilib chiqilmoqda. Ayniqsa, har bir sohaga tegishli bo'lgan qadimiy ma'lumotlar bugun o'z qadr-qimmatini yo'qotgan emas. har bir sohaning qachondab boshlab kelib chiqqani, qadimda ajdodlarimiz qanday hayot kechirganini bilishimiz muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa bizga uzoq o'tmishdan qimmatli ma'lumotlarni olishga undaydi. Yuqoridagi fikrlar bizni tarixiy meroslarni o'rganishga va asrab avaylashga undaydi. Fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrashga majburdirlar. Madaniyat yodgorliklari davlat muhofazasidadir².

Yurtboshimizning "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" asarida ta'kidlaganidek, "O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi". Qadimdan sharq xalqlari zaminida yashab kelgan insonlar o'zining zukko, aqlli va tengsiz istedodi bilan dong taratib kelishgan. Buning misoli tariqasida esa rasmiy hujjatchilik ishlarining tarixi bir necha ming yil nariga borib taqalishini keltirish mumkin. Turkiy xalqlar qadimdan o'z hayot tarzini to'g'ri yo'lga qo'ygan va har bir sohada yetarli darajada bilimga ega bo'lishgan.

Bugungi kunda bizdan talab qilinadigan birdan-bir narsa ajdodlarimiz qoldirgan ilmiy merosni chuqur o'rganish va tarixiy haqiqatlarni dunyo xalqlari ichida to'g'ri talqin etilishini ta'minlashdir.

Mumtoz asarlarni tadqiq etish, yozma manbalarning ilmiy, ma'naviy, ma'rifiy qiymatini belgilash badiiy, til xususiyatlarini o'rganish filologiya sohasining asosiy masalalaridan hisoblanadi. "Albatta, har qaysi xalq yoki millatning manaviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi."³

Tarixiy-badiiy manbalarni o'rganish yozma asarlar yaratilgan davr adabiy tiliga xos xususiyatlar, uning ma'naviy boyligi, boshqa tillardan kirib kelgan

so'zlar semantikasini yoritishda ahamiyatlidir. Yozma yodgorliklarda muayyan davr adabiy tili lug'at fondining asosiy qismi aks etadi. Shu bilan bir qatorda, muallif mahoratining o'ziga xos qirralari namoyon bo'ladi. Shu jumladan Zahiriddin Muhammad Boburning ilmiy merosi ham turkiy til taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi. Xususan, uning turkiy tilda yaratilgan va bizgacha ma'lum hamda yetib kelgan asari ijodkor mahoratining yuksak namunasi va turkiy tildagi yozma yodgorliklar ichidagi javohirlardan biri hisoblanadi.

Til tarixida, xususan, turkiy til tarixida Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarining roli, ahamiyati beqiyosdir. Uning "Boburnoma", "Risoi aruz", "Musiqi ilmi", "Mubayyin" kabi bir qator ijod namunalari nafaqat adabiyotimizda balki, til tariximizda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Biz ushbu kurs ishimizni Zahiriddin Muhammad Boburning yuksak bir asari, din-u diyonatni tarannum eta oladigan, ayni chog'da, farzandlari Komron Mirzo va Himoyun Mirzolarining Islom dini arkomlarini yaqindan o'rganishlari uchun yaratilgan "Mubayyin" asari xususida to'xtaldik.

Uning tuzilishi, til xususiyatlari, asarda kelgan so'zlarning ma'nolari, shuningdek, o'zlashgan ya'ni arab hamda forsiyga xos bo'lgan so'zlar semantikasi to'g'risida so'z yuritdik.

Zahiriddin Muhammad Boburning “Mubayyin” asarining tuzilishi.

Ushbu Zahiriddin Muhammad Boburning “Mubayyin” asari besh bobdan tashkil topgan bo’lib,

- E’tiqodiya
- Kitobu-s-salot
- Kitobu-z-zakot
- Kitobu-s-savm
- Kitobu-l-haj

deb nom berilgandir.

Asarning birinchi bobi “E’tiqodiya” deb nomlanib, Islom dini kirib kelganida so’ng urf bo’lgan tarkibda boshlab beriladi. Ya’ni ular :

- ✓ Basmala;
- ✓ Payg’ambarimiz s.a.v.ga na’t;
- ✓ Kitob nazmining sababi;
- ✓ Besh farzning ta’dodi;
- ✓ Olti mo’man bihning zikri;
- ✓ Haq subhanahuning subutuy sifatlarining tafsili;
- ✓ Meroj sifatig’a ishorat;
- ✓ Basher jinsi bila malak jinsining bir-birlariga fazilatlarining bayoni;
- ✓ Ishorat-I Imomg’a
- ✓ Ishorat iymonning natija-vu foydasig’a kabi bo’limlardan tashkil topgan.

Ikkinchi bob esa “Kitobu-s-salot” deb nomlanib,

- ✓ Basmala;
- ✓ Namozdin tashqarig’I olti farzning bayoni;
- ✓ G’ushning avvalg’I mavjabining bayoni;
- ✓ Tayammum bayoni;

- ✓ Namoz vaqtlarining bayoni;
- ✓ Namoz niyatining masoyili;
- ✓ Qiro'at masoyili;
- ✓ Musofirona namozning bayoni;
- ✓ Namoz Juma'ning bayoni
- ✓ Tavorix namozining bayoni,... kabi bir qancha qismlardan iboratdur.

Uchinchi bob ham shu yo'sinda davom etib, "Kitobu-z-zakot" deb nom berilgan. U 189 baytdan iborat bo'lib, quyidagicha bo'limlarga nom berilgan:

- ✓ Basmala;
- ✓ Zakot sharoitining bayoni;
- ✓ Naqdina bayoni;
- ✓ Zakot masorifning⁴²⁹ bayoni;
- ✓ Ushr-u xirojning bayoni;
- ✓ Zakot bermasa durust ermas kishilarning bayoni

Asarning to'rtinchi bobi "Kitobu-s-savm" deb nom berilgan bo'lib, 166 baytdan iboratdir. Uning bo'limlari esa quyidagicha nomlanadi:

- ✓ Basmala;
- ✓ Farz-u nafl ro'zalarining bayoni va niyyatlarning kayfiyati;
- ✓ Qazo bila kafforat bayoni;
- ✓ A'zori mutanajjisa⁴⁴⁹ bayoni;
- ✓ Manhi-yu makruh⁵⁰⁶ va mustahab⁵⁰⁷ savmlarning bayoni;
- ✓ E'tikof⁵¹³ bayoni

Nihoyat beshinchi bob "Kitobu-l-haj" deya uning boblariga bunday ta'rif berilgan:

- ✓ Basmala;
- ✓ Haj vujubi sharoyitining bayoni;
- ✓ Haj adosining sharoyitining bayoni;
- ✓ Haj arkoning bayoni;
- ✓ Haj sunnatlarining bayoni;
- ✓ Hajj-I g'ayr bayoni;
- ✓ Hady bayoni

“Mubayyin” asarining til xususiyatlari.

Bu asarning birinchi bobi iymon masalalariga bag'ishlangan bo'lib, “E'tiqodiya” deb ataladi. Bobur bu asarni farzandlari Humoyun Mirzo va Komron Mirzolarga islom ilmini egallashlari uchun yozib qoldirayotganliklarini quyidagicha bayon qiladi.

Bilgasen ey xo'jasta-ye farzand,

Jigarim birla jonima payvand.

Mas'alalarki, ul zarur erdi,

Bilmasang dininga qusur erdi.

Yeti ko'nglungakim yig'ishtursam,

Nazm tartibida sig'ishtursam.

To ani zabt qilg'asen oson,

Ul masoyilni bilgasen yakson.

Tonglaliq kundakim hisob o'lg'ay,

Manga ajru sanga savob o'lg'ay.

“Mubayyin” asarining kirish qismida har bir musulmon uchun amal qilinishi zarur bo'lgan shartlar ustida gap boradi. Avval besh farz – iymon, salot, zakot, savm, haj haqida qisqacha to'xtab o'tiladi. So'ngra besh farzning avvalgisi, iymon haqida tafsiloti bilan bayon qilinadi. Bu bobda ollohning o'zigina ma'budligi, farishtalarining mavjudligi, muqaddas kitoblari anbiyolarning barhaqligi, oxirat kunining va barcha yaxshiligi yomonliklar yaratuvchining irodasi bilan sodir bo'lishi yorqin misralar orqali ifoda etiladi. Haq subhanahuning subutiy sifatleri – hayot, ilm, irodat, qudrat, sam'va basar (eshitish va ko'rish), kamol, taqdirga ishorat qilinadi. Kitobi “E'tiqodiya”da Muhammad s.a.v. Payg'ambarimizning

fazilatlarini, me'roj sifatlariga alihida ishorat qilinib, uning sahobalari Abu Bakr, Umar, Usmon, Alilarning din ishiga ziynat berganliklari tafsiloti bilan birma-bir aytib o'tiladi. Keyin ahli Qibla, mazhab imomlari va bizning muqtadomiz Abu Hanifa haqida ta'sirchan misralar mohirlik bilan bitilgan.

Bobur zohid, fosiqu yaxshi-yu yomon orqasida namoz o'qilishi joiz ekanligi masalalariga ham alohida o'rin bergan. Risolaning bu bobida oxirat kuni, bandalarning savol-javobi, nomai a'moli, mezon, arosat, mavoqi', shafolat, sirot, mushruklarning manziliyu, mo'minlarning maqomi, do'zax, havzi kavsar, bihishtga ishorat qilinadi. Kitobi "E'tiqodiya" iymon sharoiti va iymoning natija yu foydasi haqidagi masalalar bilan yakunlanadi.

"Mubayyin" asarining keyingi boblarida namoz, zakot, ro'za va haj ruknlari tafsiloti bayon qilinadi.

Zahiriddin Muhammad Boburning ushbu asari masnaviy janrida yozilgan bo'lib, diniy mas'alalar olimning o'ziga xos bayon uslubi orqali chuqur bilimdonlik va ravon til bilan tushintirib berilgan. Islom dini asoslari bobma-bob badiiy vositalarning san'atkorona qo'llanilishi natijasida o'quvchi ongiga sekin-asta va mustahkam singdirib boriladi.

Bobur "Mubayyin" asarini yakunlar ekan, bu asarni yozishdan maqsad shoirlik mahoratini ko'rsatish emas. Balki haq yo'lida bilgan diniy bilimlarini bayon etib, olam ahliga sochishdan iborat ekanligini ta'kidlaydi:

Men bu ganjimni oshkor ettim,

Borini din ahlig'a nisor ettim.

Ushbularkim dedim bo'ling ogoh,

Bordurur borcha xolisan lilloh.

Bu demaktin g'araz Haq erdiyu bas,

She'ru shoirlik emasdi havas.

Demak, Boburning “Mubayyin” risolasi diniy – ahloqiy yo’nalishdagi ham diniy, ham adabiy asardir. Bu asarni maxsus ilmiy jihatdan o’rganish eng avvalo, Boburning falsafiy va diniy-axloqiy qarashlarini aniqlash uchun zarur bo’lsa, ikkinchidan, bu asarning ma’naviy hayotimizda tutgan o’rin va uning diniy va badiiy adabiyotning yorqin namunasi sifatidagi tarixiy ahamiyatini belgilash uchun muhimdir.

“Mubayyin” asarida kelgan arabcha so’zlar semantikasi

Haqqa hamdu sano ado qildim,

Haq oti birla ibtido qildim.

Ibtido – arabcha so’zdan olingan bo’lib, boshlash, ~ qilmoq – boshlamoq degan ma’noni bildiradi.

Ma’nosi: Haq ya’ni Ollohga hamdu sano aytib,

Yana Olloh nomi bilan boshladim.

Ibtido qilg’uliq ne kim bor-dur,

Qilmasang oti birla abtar-dur.

Abtar – cho’ntoq, bu yerda chala ma’nosida.

Ma’nosi: Uning nomi bilan emas, boshqani nomi bilan boshlashga yana kimning nomi bor. Shunday ekan Uninh nomi bilan har qanday ishingni boshlamasang hamma ishing chalaligicha qolib ketveradi.

Qodiru barkamol Tengri-dur,

Qohir, zuljalol Tengri-dur.

Qohir – qudratli, zabt etuvchi.

Zuljalol – jalolat egasi ma’nolarida keladi

Muntazir rahmatig’a gumrohlar,

Muftahir, qullug’i bila shohlar.

Muntazir – arabchadan tarjimasi kutuvchi.

Muftahir – arabcha so’zdan olingan bo’lib, mag’rur manosida keladi.

Hamdig'a zokir o'lsa ul tillar,

Desa hamdini oylaru yillar.

Zokir – arabcha s'z bo'lib, 1) tilga oluvchi, zikir qiluvchi,

2) Xudoning nomini qayta-qayta zikir etuvchi ma'nolarini bildiradi.

Ul barining kalomi bir bo'lg'ay,

Bori o'z ajzig'a muqirr o'lg'ay.

Kalom – arabchadan tarjimasi so'z, gap, nutq.

Muqirr bo'lmoq – tan olmoq, iqror bolmoq bo'ladi.

Vojib o'ldi borig'a shukri Xudoy,

Mustafo bo'ldi bizga rahnamoy,

Ma'nosi: Bajarilishi lozim bo'ldi Oллоhning boriga shukr, bu yo'lda bizga Muhammad s.a.v. yo'lboshchi bo'ldi.

Vojib – bajarilishi majburiy, zaruriy, lozim, shart.

Mustafo – ya'ni, Muhammad (s.a.v.) payg'ambar.

Bo'yig'a chust xil'at-i lavlok,

Lot og'zig'a ilgidin tun chok.

“Lavlok moxalaqtu-l-aflok” – Sen bo'lmasang falaklarni yaratmas edim. (hadis).

Lot – arabcha so'z bo'lib ma'nosi bunday, butning nomi

Ul-durur anbiyo sarafrozi,

Qoba qavsayn mahram-i rozi

Ma'nosi: O'shadir payg'ambarlarning ulug'I, meroj kunning sirdoshi.

Anbiyo sarafrozi – arabchadan tarjimasi payg'ambarlar ulug'i

Qoba qavsayn – me'rojga ishora.

Mahram-i rozi – sirdoshdir

Menga qilg'il shafot hamroh,

Ne dey o'ga alayka salla-l-loh.

shafot – o'rtada turib vosita bo'lish.

alayka salla-l-loh – seni Olloh olqasin.

Mas'alalar-ki, ul zarur erdi,

Bilmasang diniga qusur erdi.

Mas'ala – a. Diniy va ilmiy masalalar to'g'risida so'z yuritish.

Yetdi ko'nglung'a-kim, yig'ishtursam,

Nazm tartibida sig'ushtirsam.

Ma'nosi: Olloh mening ko'nglimga buni soldiki endi buni men qofiyaga solingan so'z kabi tesam.

Nazm – 1. Tuzum, tartib

2. Tartibga keltirish, terish, tuzish (chunonchi, dur va marvarid kabi narsalarni ipga tizish);

3. Vazn va qofiyaga solingan so'z, tizma she'r.

Tonglaliq kunda-kim, hisob o'lg'ay,

Menga ajr-u senga savob o'lg'ay.

Ajr - mukofot

Savob – 1. Yaxshi ish badaliga olinadigan mukofot (gunohning qarshisi);

2. To'g'ri, xatosiz.

Jam'ida sa'y-u ihtimom qilay,

Sening otinga men tamom qilay.

Jam' - arabcha so'z bo'lib, ikki xil ma'noga egadir.

1. Yig'indi, to'plam;

2. Barcha, hamma.

Din-u donishda har kun afzun bo'l,

Davlat-u baxt ila Humoyun bo'l.

Ma'nosi: Din-u donishmandlikda har kuni bundanda martabang oshsin va davlat-u baxt birla viqorli bo'l.

Afzun – oshib boruvchi, arazlashib boruvchi.

Ulammo aksari dedi bu maqol,

Chihl farz o'ldi muftad-i a'mol.

Muftad – bekor qiluchi.

a'mol – “amal”ning ko'pligi.

Ilm-u farz elga misl-i qarzdurur,

Talabi barcha elga farz-durur.

Misl –bir narsaning o'xshashi, monandi, tengi.

Farz – 1. Xudoning ijrosi zarur bo'lgan, xudo buyruqlari, zarur, lozim

2.Taxmin, mo'ljal, hisoblash.

Kim-ki avval bo'lsa bolig'-u oqil,

Anga besh farzdir muni bilgil.

Bolig' – arabchadan ma'nosi voyaga yetgandir.

Biri iymondur-u ikkinchi salot,

Bu ikidin keyin uchunchi zakot.

Salot – namoz o'qish

Zakot –musulmonlarning na'lum miqdordagi daromadlaridan xayr-ehson qilishlari.

Eldin o'ldin borig'a to'at shart,

Lek ikida bor istito'at shart.

istito'at –iloji bor bo'lish, imkoniyat, qudrat. Bu o'rinda zakot va hajga qodrlilik nazarda tutilmoqda.

Emdi bir-bir qilay borin tahqir,

Haq ta'olodin o'lsa gar taqdir.

Ma'nosi: Agarki taqdir Olloh ta'olodan bo'lsa, endi borini bir-bir borini bayon qilay.

Tahqir qilmoq – bayon qilmoq.

Mu'manun bihqa-kim bo'lur tahqiq,

Qilg'ay iqrar til, ko'ngul tasdiq.

Mu'man (un) bih ji –iymon keltiriladigan, inoniladigan narsalar.

Tahqiq – o'rganish , tadqiq qilish.

Avval iymon Xudog'a kelturgil,

Shirk cherigin zamiridin surgil.

Cherig –arabcha so'zdan olingan bo'lib,qo'shin, askar degan ma'nolarda ishlatiladi.

Tengri kunhig'a banda yo'l topmast,

Qachon-u qanda anda yo'l topmast.

Kunh – Tub, mohiyat.

O'z boshingcha Xudog'a ot demagil,

Ham ta'aqqul qilib sifat demagil.

Ta'aqqul qilmoq – yuritmoq

Bor mavsuf ul sifat birla,

Ham musammo-durur ul ot birla.

Mavsuf – vasf qilingan

Musammo – nomlanuvchi

Ko'rar-u eshitur tafovutsiz,

Ajz yo'q-tur janobida hargiz.

Ma'nosi: ko'radi, eshitadihech qanaqa farqsiz, yana hech qanaqa ul zotda ojizlik ham yo'qdir.

Ajz – ojizlik

Tog'da tosh, tuzda qum adadlarini,

Anga zohir-durur, bilur borini.

Ma'nosi: tog'dagi tosh, tuzdagi qum sonlarini hammasi Unga (Ollohga) yaqqol qanaqaligi bilinadi.

Adad – son

Zohir – yaqqol, namoyon.

Mutakallim-duru kalom birla,

Ne til-u ne og'iz, ne kom bila.

Mutakallim – arabchadan ma'nosi **so'zlovchi** demakdir.

Adam ul so'z bila bujud o'ldi,

Muncha tor o'ldi, muncha pud o'ldi.

Adam – bu so'zni arabchadan tarjima qilganda ikki xil ma'nosi border:

I yo'q, yo'qlik

II nobut, o'lim

Zohidig'a tegar tuban ta'be,

Yorliqlar fosiqini besababe.

ta'be – qiynalish

yorliqamoq - rahmat qilmoq

Har bir muakkil o'ldi malak,

Gar yer ahli durur, gar ahl-i falak.

Muakkil – vakil etilgan

Zulm emas-tur erur bori ishi xo'b,

Adl ila fazl erur anga mansub.

Adl – adolat, to'g'rilik, insof

Fazl – 1. Ortiqlik, yetuklik

2. Ilm, fan, hunar, talant.

Biri roki'-durur biri sojid,

Biri qoyim-durur biri qo'id

roki' – ruku qiluvchi

sojid – a. sajda qiluvchi

qoyim – tikka, tik turuvchi

qo'id – o'tiruvchi

Biri haq oti birla mustag'raq,
Bilmayin Haqdin o'zgani mutlaq.

mustag'raq – g'arq bo'lgan, cho'kkan

mutlaq –

1. Shartsiz, biror narsa bilan cheklanmagan
2. Also, hech, sira, hargiz, faqat

Bilingiz-kim farishta xayli bari,

Narli-g'u modalig'din o'ldi bari.

Xayl – arabchadan tarjimasida o'zbek tilida ikki xil ma'no kasb etadi.

1. Guruh, to'da, tup
2. Ot-ulov to'dasi

Kufr ila ma'siyatni bilmas-lar,

Haq buyurg'ondin o'zga qilmas-lar.

ma'siyat – gunoh, osiylik

Bu malak ichra to'rt-dur mashhur,

Otlari safhalarda-dur mastur.

Ma'nosi: Tangri farishtalarining ichida to'rttasi mashhurdir, otlari ya'ni nomlari kitoblarda yashirindir.

Safha – 1. Sahifa, varoq, bet

2. Har bir narsaning yuza tomoni

3. Yoq, qirra
4. Maj. Kitob

Mastur –yashiringan.

Bor burung'usi vahiy kelturgan ,

Yana biri sur ichra ham surgan.

Vahiy –afsonaga ko'ra payg'ambarga Jabroil farishta vositasi bilan Xudodan yuborilib turgan xabar

Sur – arabcha so'z bo'lib,

- I. 1.shoxdan yasalgan surnay
- 2.din. Qiyomat kuni Isrofil farishta chaladigan buv, karnay
- II.qo'rg'on, qal'a ma'nolarni anglatadi.

Bor-durur jumla-yi anbiyo ma'sum,
Jurm-u isyon alarda-dur ma'dum.

ma'sum – begunoh, pok

ma'dum – yo'q bo'lgan

Har suvar rost aylab o'zlariga,

Ko'rinur ahli qurb ko'zlariga.

Suvar – 1. Qur'onning ayrim bob va bo'limi

2. Sur'atlar, shakllar, tashqi ko'rinishlar

Ahli qurb – yetishgan kishilar

Elga derlar Xudoy ahkomin,

Amr ila nahy-u har ne payg'omin.

Amru nahy – qil va qilma deb buyurilgan amallar

Borchaning afzali Muhammad-dur,

Borchaning akmal-i Muhammad-dur.

Akmal – eng yetuk

Anbiyo birla muhtalin bo'ldi,

Nuridin javfi osmon to'ldi.

Muhtalin – aralashish. Bu yerda muloqat ma'nosida.

Javf – bo'shliq

Yana bilgil-ki havz-i kavsar-dur,

Anda yulduzcha zarflar bor-dur.

Zarf – idish

Gar suvning nisfi yo ko'piga tegar,

Suv arig'siz-dur andoq o'lsa agar.

Nisf – yarim

Asarda qo'llanilgan forsha so'zlar semantikasi.

Har ne-kim qilsa ul qilur beshak,

Har ne-kim qilsa ul bilur beshak,

Ma'nosi: kimki nimadir qilsa unga ham shaksiz qiladi, kimki nimadir qilsa biladi shubhasiz.

Beshak –sof forsiy so'z bo'lib, shaksiz, shubhasiz.degan ma'nolarda qo'llaniladi.

Muntazir rahmatig'a gumrohlar,

Muftahir, qullug'i bila shohlar.

Gumroh – 1)yo'lini yo'qotgan, yo'ldan adashgan

2) yo'ldan ozgan, gunohkor

Yaman-u yaxshig'a umid andin,

Qo'rqmoq andin-u navid andin.

Navid - sevinchli xabar, xushxabar

Bilgasen ey xo'jasta-e farzand,

Jigarim birla jonima payvand.

xo'jasta –forschadan tarjima qilinganda o'zbek tilida ikki xil ma'noni ifodalaydi.

1.qutlug', muborak.

2.baxtli, baxtiyor.

Payvand – *so'z birikmasida*: 1.Ulanish.

To ani zabt qilg'a-sen oson,

Ul masoyilni bilga-sen yakson.

Yakson – birday, bir xil, baravar, teng

Bebaqo dunyo ishi sahl-durur,

Din ishin qilg'ay ul-ki, ahl-durur.

Ma'nosi: Bu ishlar sen uchun yengildur,agar kim din ishini bajarsa , biz bilan ham ahldir.

Sahl – yengil, qiyin emas.

Din-u donishda har kun afzun bo'l,

Davlat-u baxt ila Humoyun bo'l.

Humoyun – shohona, viqorli. Humoyun Mirzoga ham ishora bor.

Komron bo'l jahonda, davlat ko'r,

Yuz tuman obru-yu izzat ko'r.

Komron – baxtli, maqsadlarga yetuvchi, Komron Mirzoga ham ishora bor.

Ulamu aksari dedi bu maqol,

Chihl farz o'ldi muftad-i a'mol.

Chihl – forsha so'z bo'lib o'zbekchada qirq degan ma'noda qo'llaniladi.

Tengri kunhig'a banda yo'l topmast,

Qachon-u qanda anda yo'l topmast.

Banda –1. Qul, ixtiyorsiz kishi.

2.kamina, faqir (o'zini kamtar tutib, men ma'nosida ishlatiladi)

Mutakallim-duru kalom birla,

Ne til-u ne og'iz, ne kom bila.

Kom –I. 1. Tilak, istak, maqsad

II tanglay, og'iz ikkinchi ma'nolaridir

Adam ul so'z bila vujud o'ldi,

Muncha tor o'ldi, muncha pud o'ldi.

Pud –arqoq

Zulm emas-tur erur bori ishi xo'b,

Adl ila fazl erur anga mansub.

Ma'nosi: ishi faqat yaxshilik zulm unga yiroqdir, adolat va yetuklik faqat unga xosdir.

xo'b – yaxshi

Bilingizkim farishta xayli bari,
Narli-g'u modalig'din o'ldi bari.

Narlig' – erkaklik

Bor burung'usi vahiy kelturgan ,
Yana biri sur ichra ham surgan.

Ma'nosi: Avvalgisi payg'ambarlarga vahiy (Ollohning so'zi)ni keltirgan ,yana biri
Qiyomat kuni sur,buv chaladigani.

Sur –

- I. 1. a. shoxdan yasalgan surnay
2.din. Qiyomat kuni Isrofil farishta chaladigan buv, karnay

- II. qo'rg'on, qal'a

Har suvar rost aylab o'zlariga,
Ko'rinur ahli qurb ko'zlariga.

Rost – 1. O'ng; 2. To'g'ri, tik

II.Muzika kuylaridan biri

Vajib o'ldi borig'a shukri Xudoy,
Mustafo bo'ldi bizga rahnamoy

Rahnamoy – yo'l ko'rsatuvchi

Bori ishda biling-ki dono-dur
Har ne qilmoqta ham tavono-dur.

Ma'nosi: Hamma ishda ul zotbilimdondir, nimaki qilsada har ishda kuch-
quvvatlidir.

Dono – bilimdon

Tavono – kuchli, quvvatli, qudratli.

Ko'z yumib ochquncha qilur mavjud,
Ko'z ochib yumg'uncha qilur nobud.

Nobud – yo'q, yo'qlik

Har ne qilmoqta qudrati bas-tur,

Olat-u vosita kerakmas-tur.

Bas – 1. Kifoya ,yetarli,tamo 2.ko'p, g'oyat, demak.

Yana bil vasf-I sam'-u vasf-I basar,

Ildin mundin o'zga ma'no bor.

Basar – saranjom

Ushbu-lar birla siz yamon bo'lmang,

Kufr-u isyonga hamzabon bo'lmang.

Hamzabon – bir tilda so'zlashuvchi, suhbatdosh, birlashuvchi

Burnog'I manzil anda go'r-durur,

Go'r eliding Xudoy so'r-durur.

Go'r –

I.1. yovvoyi eshak

2. shoh Bahromning laqabi

II.2. Qabr

Der, Xudoying, payg'ambaring kim-durur,

Dining-u roh-u rahbaring kim-dur.

Rahbar – yo'l ko'rsatuvchi, dalil

Qabrini keng Xudoy qilg'ay anga,

Ravzan uchmoq sari ochilgay anga.

Ravzan – tuynuk, teshik, darcha

Uyini topqonida gurz asari,

Eshitur g'ayr-i odame-yu pariy.

Gurz – urush qurollaridan, gurzi, zo'r to'qmoq

Davr-i oxir-ki chun yovuqlashsa,

Umr paymonasi bori toshsa.

Paymona –may piyolasi, qadah.

Zinda qilay borini bir damda,

Hech o'lik qolmag'ay bu olamda.

Zinda – tirik, jonli

Ki oyoq qo'ysa kofir ul damda,

Yerini ko'rgay ul jahannamda.

Dam –1. Nafas, lahza, on

2.temirchilarning dami

Kim-ki do'zaxqa tushsa kofirdin,

Chiqmagay jovidon o'shal yerdin.

Ma'nosi: Kimki agar kofirligidan do'zaxga tushsa umuman u yerdan qutilib chiqolmagay.

Jovidon – ham forsha so'z bo'lib, abadiy, doimiy, mangu, mudom, doimo ma'nolarida keladi.

Gunahicha agarchi ranj etar,

Lek oxir bihisht sari ketar

Ma'nosi: Agar gunohichalik mashaqqat (savob) cheksa, oxir oqibat Jannat bog' - rog'lari sari ketishi mumkin.

Ranj – mashaqqat, qiynalish, og'riq, kasallik.

Bihisht – jannat, eng go'zal bog'.

Puldin o'tib bu suda turg'aylar,

Xalqni bu sug'a cho'murg'aylar

Ma'nosi: ko'prikdan o'tib bu tarafda turgaylar, so'ngra xalqni bu suvda cho'miltirgaylar.

Pul – ko'prik Su –tamon, taraf.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Siyosiy adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. Toshkent. Ma'naviyat 2010.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent 2008

Asosiy adabiyotlar:

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. Mubayyin. A. Qodiriy nomidagixalq merosi. Toshkent 2000
2. Zahiriddin Muhammad Bobur. Tanlangan asarlar. Toshkent. 1958
3. Zahiriddin Muhammad Bobur. asarlar . uch jildlik. Toshkent. Fan 1965-66.
4. Zahiriddin Muhammad Bobur. Devon. Toshkent. Fan 1994
5. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. Toshkent. 1960.1989

Internet sahifalari.

1. WWW.ziyo.uz
2. WWW.kitob.uz
3. WWW.referat.uz
4. WWW.google.com

Foydalanilgan lug'atlar:

1. П. Шамсиев С. Иброхимов «Навоий асарлари лугати» (Алишер Навоий асарларининг ун беш томлигига илова) Тошкент 1972
2. Рубинчик Ю.А. Персидско-русский словарь I-II том